



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№6 (816), 2026-yil 20-mart

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ Qutlov!

NAVRO'ZNI ULUG'LASH – INSONNI ULUG'LASHDIR!

Aziz hamkasblar! Sizlarni Ramazon hayiti va Navro'zi olam munosabati bilan qizg'in tabriklayman.
Navro'z – ona tabiatda uyg'onish, yangilanish va yasharish ayyomi bo'lsa, Ramazon oyi insonlarni ezgulik, xayr-saxovat, mehr-oqibat va ruhan poklikka chorlaydi. Bu yil birga kelayotgan ushbu bayramlar zahirida bebaho qadriyatlar, ezgu an'analar mujassam.



Quvondiq SANAQULOV,
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
Boshqaruvi raisi – Bosh direktori

Eng muhimi, Navro'z – inson va tabiat chambarchas bog'liq ekanligi, Ramazon oyi mehr-muhabbat, saxovat va muruvvat kabi fazilatlar xalqimizning qon-qoniga singib ketganligini yorqin namoyon etmoqda. Necha ming yillik tarixga ega Navro'zi olam kecha va kunduz teng keladigan sharqona yangi yil bo'lib, hammamiz uchun sevimli bo'lgan bahor bayramidir.

Bu ezgu an'analar yurtimizda olib borilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda xalqimizga kuch va ilhom bag'ishlamoqda. Muhtaram Yurtboshimiz rahnamoligida Yangi O'z-

bekiston bunyodkorlik va taraqqiyot mamlakatiga aylanmoqda. Keng ko'lamda amalga oshirilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlari natijasida shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tubdan yangilanib, zamonaviy va obod maskanlarga aylanmoqda. Ishga tushirilayotgan yangi korxonalar, barpo etilayotgan uy-joylar, zamonaviy ta'lim va tibbiyot muassasalari, obod yo'llar hamda muhtasham infratuzilma obyektlari yurtimizning taraqqiyot sari dadil qadam tashlayotganligining yaqqol isbotidir.

Navro'z ayyomi nafaqat o'zbek xalqining, balki turli millat va elat vakillarining ham sevimli bayramidir. Bu, shunchaki oddiy bayram emas, balki qalbg'a ma'naviy quvvat beruvchi, odamlarni bir-biriga jipslashtiruvchi bebaho qadriyat hamdir. Ajdodlarimizdan meros bu umrbodiy ne'matlardan bahramand bo'lib, shunday yorug' kunlarga, qutlug' ayyomlarga, tinch-osuda hayotga yetkanimiz uchun taqdirimizga har qancha shukronalar aytsek arziydi.

Yog'ingarchiliklar mo'l bo'layotgani, ona tabiatimiz go'zal qiyofaga kirayotgani, serquyosh kunlar yilimiz barakali kelayotganidan dalolatdir. Elimiz, chorvadoru bobodehqonlarimiz kayfiyati, yurt farovonligi aynan bahorning qanday kelishiga bog'liq. Yoshi ulug'lar bejizga: “Yaxshi yil – bahoridan, Yaxshi kun – saharidan ma'lum”, deyishmaydi.

Yangi O'zbekistonimizning har bir go'shasida bo'lgani kabi kombinatimiz mehnat jamoasi ushbu qadimiy bayramni ko'tarinki ruhda, yorug' yuz bilan, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini ortig'i bilan bajarib kutib olmoqda. Kombinat bo'linmalari joylashgan bepoyon Qizil-



*Avval yuragingga mo'ralaydi u,
 So'ngra kurtaklarga o'rgatadi so'z.
 Zaminning ko'zidan qochadi uyqu,
 Demak, Bahor keldi,
 Kelmoqda Navro'z.*

*Qishning ahvoliga boqib hoynahoy,
 Yum-yum yosh to'kmoqda eriyotgan muz.
 Jilva qilayotir tengsiz bir chiroy,
 Demak, Bahor keldi,
 Kelmoqda Navro'z.*

*Ona bag'ri kabi iliqdir olam,
 Harir hovur ichra yayrar dala-tuz.
 Qoldi puchmoqlarda xazon yanglig' g'am,
 Demak, Bahor keldi,
 Kelmoqda Navro'z.*

*Yana ko'ngillardan rutubat ketdi,
 Yana shu'lalardan qamashmoqda ko'z.
 Yana dildorlikning fursati etdi,
 Demak, Bahor keldi,
 Kelmoqda Navro'z.*

Abdulla ORIPOV.

qum kengliklari, Nurota tog' tizmalari, Qo'shrabot, G'allaorol, Nurobod adirlarida ham bahor shukhi, tarovati kezmog'da. Ana shunday quvonchli onlarda 40 dan ortiq elat va millat vakillaridan iborat ahil jamoamiz bilan birga Navro'zi olamni shodu xurramlik bilan qarshi olayapmiz.

Bu yil O'zbekistonimizda bahor ayyomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2026-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarori asosida “Navro'zni ulug'lash – insonni ulug'lashdir!” degan bosh g'oya ostida o'tayotgan yurtodoshlarimizni ezgu maqsadlar sari chorlamoqda. Mehnat jamoamiz ham bayram tadbirini katta sayil ko'rinishda tashkil etib, Navro'z ayyomini shodiyonalik bilan nishonlaydi.

Vazirlar Mahkamasi farmoyishiga asosan, respublikamizda 13-14-mart

kunlari “Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi!” shiori ostida bo'lib o'tgan umumxalq xayriya hasharida ko'p-ming kishilik jamoamiz ham faol ishtirok etdi. Bo'linmalar hududlari obodonlashtirilib, mevali va manzarali daraxt, gul ko'chatlari o'tqazildi.

Navro'z bayrami munosabati bilan bo'linmalarda o'tayotgan ommaviy-madaniy tadbirlar, ishchi-xodimlar va mehnat faxriylari uchun yozilayotgan to'kin-sochin dasturxonlar hamkasblarimiz ko'ngillariga shukronalik hislarini bag'ishlamoqda. Zero, ushbu qutlug' kunlarda xalqimizning qon-qoniga singib ketgan bag'rikenglik, muhtojlarni qo'llab-quvvatlash, keksalar duosini olish kabi xayri va savobli amallar bajarilayotganligi azaliy qadriyatlarimiz umrbodiylikni ko'rsatib turibdi.

Bayram arafasida Navoiy kon-metallurgiya kombinati xodimlari kasaba

uyushmasi Kengashi bilan birga ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan 550 nafar oilalar, yolg'iz keksalar, faxriylar holidan xabar olinib, ko'ngil so'raldi. Bo'linmalarda arzonlashtirilgan oziq-ovqat yarmakalari, ishchi-xodimlarimiz uchun tarixiy shaharlarga sayohatlar tashkil etilayotgani bayramlarning ko'tarinki ruhda o'tishini ta'minlamoqda.

Bahor faslida “Yashil makon” umum-milliy loyihasi doirasida 202 ming tup mevali va manzarali, buta ko'chatlarini o'tqazib, yurtimizni obod qilishga o'z hissamizni qo'shishni niyat qilganmiz. Ayni kunlarda bu ishlar yuksak uyushqoqlik bilan olib borilmoqda.

Joriy yilda ulkan marallarni ko'zlaganmiz. Jamoamiz tomonidan 2026-yilga mo'ljallangan rejalarni o'z vaqtida bajarish maqsadida investitsion loyihalarini amalga oshirish, qurilish-bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda davom

etmoqda. Buning uchun kombinatimizning barcha ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlariga tashakkurimni bildiraman. Ahil jamoamiz, har doim bo'lganidek fidokorona mehnati hamda ahilligi bilan oldimizda turgan vazifalarni sharafla bilan bajarishlariga ishonchim komil.

Yangi O'zbekistonni eng rivojlangan davlatlar qatorida ko'rishdek ulug'vor maqsad – umumxalq harakatiga aylandi. Ana shu harakatning oldingi safarida bo'lib, uni ro'yobga chiqarishga munosib hissa qo'shish kombinatimiz jamoasi uchun yuksak sharaflar.

Kombinatimiz mehnat ahlini muborak Ramazon hayiti va Navro'zi olam bilan yana bir bor tabriklagan holda, barchalaringizga mustahkam sog'lik, oilaviy baxt-saodat, jonajon Vatanimiz ravnaqi yo'lida olib borayotgan fidokorona ishlarigizda ulkan zafarlar tilayman.

■ Oramizdagi odamlar

SHASHTI SO'NMAYDIGANLARNING ISHI

Gazetachini oyog'i boqadi, degan gap bor. Bugun mag'ribda bo'lsang, ertaga mashriqdasan. Ostona hatlashga shaylanganingda “Bugun uyga kelasizmi?”, – deb kuzatib qo'yadi, jurnalistning ayoli. Bugun ham shunday bo'ldi.

Shashti so'nmaydiganlarning ishi bo'lgan kasbimiz taqozosi bilan qanchadan-qancha mehrli, oqibatli, ziyoli, el-yurt koriga yaragan va yarayotgan insonlar bilan suhbatlashganman, suhbatlashaman ham. Bugun “Qoraqo'ton” koni tomon otlandik.

“QORAQO'TON” TOMON YO'L

Soat millari 9:30 ni ko'rsatmoqda. Paxtachi tumanining Nurobod kengliklariga tutashib ketgan Qatormoy tog'i osmonini bulut to'liq qoplagan. Demak, yomg'ir yog'adi. Yoqqanda ham, jala bo'lib yog'adi. Kechagi yomg'irdan so'ng halqob bo'lib yotgan ko'maklar avval kichiklariga, so'ng kattaroqlariga birlashib, ariqlarda loyqaga aylanadi. Buni g'arbdan esayotgan betartib shamol olib kelgan iliq havodan ham bilish mumkin. Biz Qatormoy tog'ining shimolida joylashgan “Qoraqo'ton” konini manzil bilib, Nayman cho'qqi tomon ketib borayapmiz. Bir zamonlar tog' yonbag'irlariga sig'magan hamda yaydoq yurgan chorva podalari va yilqi uyurlari hozir yo'qotongan, yo' qoziqqa olingan. Ularning o'rini yerkovlar texnikalar, manglayiga mo'ri qo'ndirilgan lokomotivlar va konchilarning shovqini egallagan. Tashqaridan qaraganda bular har qaysisi o'z qonun-qoidalariga ega bo'lgan alohida bir sistema sanaladi. Ammo bularni yaxlit bir tizim sifatida bog'lab turuvchi, o'zaro taqozo qiluvchi qandaydir bir bog'liqlik, sababiyat, qonuniyat mavjud. Bu – yurt ravnaqi, xalq farovonligi yo'lidagi muqaddas yumush!

“Qoraqo'ton” koniga yetib borganimizda osmon qoramtir tusga kirgan, ana-mana deguncha yomg'ir sharros uradigandek edi. Fevral avvalida boshlangan yomg'irlar mavsumi yer bag'rini anchagina isitib, dasht to'rg'ayining ham tinchini qochirgan. Hali sayroqligini boshlab yubormagan bo'lsada, angda qolgan uncha-muncha otligni

ag'daradigan darajada pattillab qolgan. Jonsarak to'rg'ayning tapillashi, yerni yorib chiqayotgan mayсалarning ifori shundog'am kamgap shaxtyorlar shuurini chulg'ab olgan. Bahorning ana shunday manzaralari ostida “Qoraqo'ton” koni ma'muriyati binosiga kirib bordik.

HAYOT MEZONLARI O'ZGARGAN MAKON

Bizni kon boshlig'i Valljon Bazarov qarshi oldi. Qisqacha salom-alikdan so'ng u kishiga tashrifimizdan maqsad konchilar mehnati, ularning orzu-havasi hamda ularga yaratilgan sharoitlar bilan tanishish ekanligini aytiddi.

– Bizda ish bir soniya ham to'xtashi mumkin emas, – deya gap boshladi V.Bazarov. – Chunki ishimiz bevosita harakat bilan bog'liq. Rahbariyat tomonidan kunlik reja qo'yilgan. Unga ko'ra yer ostidan kuniga 830 tonnadan ortiq ma'dan qazib olishimiz lozim. O'sha 830 tonnadan ziyod qazib olingan ma'dan temiryo'l transporti orqali 1-gidrometallurgiya zavodiga tashiladi va qayta ishlanadi. “Qoraqo'ton” konida ma'dan qazib olish shaxta, ya'ni, yerosti kon ishlari usulida amalga oshiriladi.

Ma'dandan oltinni ajratib olish ishlari bir nechta bosqichdan iborat. Bu jarayonda yuzlab mutaxassislar mehnat qiladi. Geologlar ma'dan joyini, uning yotish burchagi, qalinligini aniqlasa, markshayderlar hududda burg'lash nuqtalarini belgilaydi. Burg'i quduqlari yoki shpurlar burg'langach, portlatuvchilar portlatish ishlarini bajaradi,



ma'danlar esa ulkan va qudratli yer osti texnikalari yordamida yer qaridan tashib chiqiladi. Bir joyga to'plangan ma'danlar temiryo'l transporti orqali 1-gidrometallurgiya zavodiga jo'natiladi. Zavodda bir necha sexda qayta ishlanib, yarim tayyor mahsulot ko'rinishiga keladi.

Hamsuhbatimiz ma'lumot bergani sayin, bizda qiziqish ortib boraverdi. Aynan shu qiziqish va ishtiyok bilan gorizont bo'yicha 420 metr yer ostiga tushdik.

Tibbiyot xodimlari qon bosimimiz va yuragimiz urishini tekshirib ko'rishdi. Sog'lig'imiz tibbiyot xodimlarini qoniqtirdi shekilli, bizni shaxtaga tushish tamoyiliga asosan xavfsizlik texnikasi qoidalariga birlamchi yo'l-yo'riq o'tish xonasiga boshlashdi. Mutaxassislar esa konga tushish va

u yerda rioya etilishi shart bo'lgan qoidalarni uqtirishdi.

Maxsus kiyimlarni egnimizga ilib, xavfsizlik uchun kerak bo'ladigan birlamchi vositalarni qabul qildik.

BU YERDA TONG OTMAYDI

Shaxtaga “Qoraqo'ton” koni bosh muhandisi Alisher Normurodov hamrohligida soatiga 20 kilometr tezlikda harakatlanadigan maxsus yer osti texnikasida tushdik. Yer qariga tushish biroz hadikli, qo'rquvga soladigan tor, tepangda osig'lik chiroqlar xira tortgan, zim-ziyo qorong'lik. Mashina chirog'ining xira yorug'i yer qariga singib ketadi. Qorong'ulikka ko'zlar tezda moslashadi. Shaxtaga pok niyatda va poklangan holda tushiladi.

– Yer ostida ishlash, tor yo'lakchalar va havo tanqisligi sharoitida mineral toshlarni maydalash mas'uliyatni o'ziga yo'lidosh bilib, qat'iyat etagidan mahkam tutganlar va yuragida issig'i borlar ishi. Ikkilanmagan aytaman: “Qoraqo'tondagi” barcha mutaxassislar – yuragi yonib turadigan bugungi davr qahramonlari!

Eni atigi to'rt metrlik tuynukda ro'parangdan ma'dan o'rtilgan bahaybat transport vositasi paydo bo'lsa, seni vahima o'z domiga torta boshlaydi. Chunki, qariyb 450 metr yer ostida bitta texnika sig'adigan tuynukda ikkita texnikaning ro'parama-ro'para turishi... bu aqlga sig'mas holat. Har holda o'sha paytda. Shaxtada bu muammo oqillik bilan hal etilgan.

Давоми 2-бетда

■ Yasharish ayyomi

EZGULIKKA ESH BO‘LGAN NAVRO‘Z

Xalqimiz tafakkurining betakror mo‘jizasi – Navro‘z bayrami qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biridir. Uning tarkibiga qadimgi ota-bobolarimizning mifologik tasavvurlaridan tortib, bugungi zamondoshlarimizning qarashlarigacha bo‘lgan ma‘naviyat olami singib ketgan bo‘lib, u insoniyat madaniy taraqqiyotining har bir yutug‘idan doimo kuch va quvvat olib turdi. Shuning uchun ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va insoniyat ilmiy-badiiy tafakkuri darajasiga ko‘ra doimo boyib, ba‘zida ayrim o‘ziga xosliklarini o‘zgartirib, hatto yo‘qotib boradi. Navro‘z har qanday g‘ayriodatiy aralashuvlarni, uni qoliplashtirishga bo‘lgan urinishlarni pisand qilmay, xalqimiz ma‘naviy hayotidan oziqlanib, boyib bordi. Elning mehnatiga esh bo‘lib kelgan Navro‘z bayrami ajdodlarimizning qadimgi dehqonchilik madaniyati, ezgulikni ulug‘lash va yaratuvchilik g‘oyasiga asoslangan hayotbaxsh an‘analari asosida kelib chiqqan.

Folklorshunos M.Jo‘rayev o‘z tadqiqotlarida Navro‘z bayrami va qo‘shiq-lari, marosimlari haqida so‘z yuritarkan, avvalo bu yangi kun – qishning yoz bilan, yozning qish bilan olib boradigan kurashi natijasida olam va odam o‘rtasidagi qadimi munosabatlarga ham borib taqalishini ta’kidlaydilar.

Ko‘rinib turibdiki, Navro‘z yilboshi va bahor bayrami, kelayotgan yangi mehnat mavsumining barakali, farovon bo‘lishiga tilak bildirish hamda yovuzlik kuchlari zimiston qa‘riga chekinib, ezgulik tantana qiladigan kundir. Bu kun yovuz kuchlarning mifologik timsollaridan biri – Ajdahaka (Zahhok-Bivaras) mag‘lub bo‘lib, olam ahli ro‘shnolikka chiqqanligini anglatgan. Shuning uchun ushbu bayram bilan bog‘liq sayillar, urf-odatlar, marosimlarning o‘tkazilish negizida yangilanish bilan bog‘liq an‘analari ko‘zga tashlanadi. Bulardan boychechak va lola sayillaridagi Navro‘zboy va Bahoroy kabi obrazlarning shakllanishi, qolaversa, yaqinlarga cha sumalak sayillarida “Ashshadaroza” marosimining (erkak kiyimidagi ayol va kelinchak libosidagi qo‘rg‘irchoq o‘rtasidagi aytishuv) o‘tkazilishidagi qaramaqarshi tomonlarning aytishuvida qish va yozning kurashi namoyon bo‘lgan.

Navro‘z bayramining paydo bo‘lishi O‘rta Osiyoda yashagan qadimgi aholi e’tiqodiy qarashlaridan biri – zardo’shtiylik bilan ham aloqadordir. Avestoshunos olimi M.Boysning yozishicha, qadimgi zardo’shtiylik olamda tabiat o‘zgarishlari, fasllar almashinuvi, quyosh harakati, dunyodagi hayotni o‘z izmiga solib turuvchi muqaddas bir kuch bor, deb o‘ylashgan ekan. Bunday tabiat qonuni “Avesto”da “asha” so‘zi bilan ifodalangan. “Asha” so‘zi esa “haqiqat”, “ezgulik” ma’nolarini anglatar ekan. Yuqoridagi “Ashshadaroza” marosimining ildizida ham shunday ma’no-mazmun mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘rta Osiyo xalqlarida yilboshi – Navro‘z bayramining nishonlanish muddatini boychechak yoki binafshalarning ochilishi bilan, yoki bodom daraxtining gullashi bilan, mavsumiy qushlarning ko‘klamga uchib kelish vaqtiga qarab aniqlash bilan bog‘liq an’anasi ham mavjud bo‘lgan. Masalan, Qozog‘istonning janubiy tumanlarida istiqomat qiluvchi dehqonlar Navro‘z bayramining nishonlanish vaqtini navro‘zak, navro‘z to‘rg‘ay, ko‘ktumshuq to‘rg‘ay deb ataladigan qushning uchib kelishi muddatiga qarab ham aniqlaganlar. Bu qushlarning uchib kelish vaqti

eski yilning oxirgi kunlari – yangi yilning ilk kunlariga to‘g‘ri kelgan. Shimoliy Far-g‘ona cho‘ponlari erta bahorda “navro‘z chumchuq” deb ataluvchi qushning uchib kelishi vaqtiga va uning rangiga e’tibor berishgan, agar u oq rangli bo‘lsa, yog‘ingarchilik kam bo‘ladi, sariq tusli bo‘lsa, yomg‘ir ko‘p yog‘adi, deb ta’bir qilishgan. Folklorshunos O.Safarovning ta’kidlashicha, shofirkonlik bolakaylar zag‘izg‘on uyasiga tuxum qo‘ygani ko‘rishsa, bu xabarni kattalarga yetkazib, navro‘z dargini berishga shoshilgan ekanlar. Tabiat hodisalari bilan uzviy bog‘liq Navro‘z bayramining o‘ziga xosligi ham shunda bo‘lsa kerak.

Navro‘z bayramining yana bir yashovchanlik xususiyati, ajdodlar va avlodlarning bir-biriga bog‘lovchi an‘analari ham aks etadi nazarimizda. Bugungi kunda saqlangan sayillar va sumalak pishirish jarayonlarida aynan katta avlodning yosh avlod bilan bir qatorda bayram shodiyonalarini o‘tkazishining o‘zida ramziy ifoda mavjud. Navro‘z azaldan mehroqibat, o‘zaro hamjihatlik, saxovatpeshalik, bag‘rikenglik tantanasi bo‘lib kelgan. Naql qilishlaricha, tarixda Navro‘z kuni hatto urushlar ham to‘xtagan. Shuning uchun ham Navro‘z kuni arazlashgan kishilar yarashishgan. Navro‘zda o‘zlarini ruhiy-ma‘naviy jihatdan barkamol bo‘lishga chog‘lagan odamlar faqat ezgu ishlar bilan shug‘ullanishga kirishganlar. Yilboshi kuni yaqin kishilarni qutlash, bemor va keksalardan hol-ahvol so‘rash, o‘tganlarning mozarini ziyorat qilish, yosh bolalarni turli-tuman sovg‘alar bilan siylash, hamma xursandchilik qilishi odati ana shundan kelib chiqqan. Umuman olganda Navro‘z bayrami ezgulikka, yaxshilikka, mehroqibatga esh tantanadir. Uning qadimiyligi va navqironligi, abadiy va yashovchanligi, o‘zi bilan qayta tug‘ilayotgan go‘zal bahor hayotini yetaklab kelgani insonlarga qut-barakani hadya qilgani bilan chambarchas bo‘lsa neajab.

Hulkar ALIQULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti o‘qituvchisi, filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

■ Oramizdagi odamlar



SHASHTI SO‘N MAYDIGANLARNING ISHI

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Ya’ni, yer osti qiya lahmida transport vositasi bir tomonlama harakatlangani uchun ma’lum bir masofada qo‘shimcha kon lahimlari mavjud. Bu qaramaqarshi tomondan kelayotgan transport vositasiga yo‘l berish uchun maxsus tayyorlangan. Texnikalardan biri o‘sha kon lahimiga kirib, ro‘paradagi yuk transportiga yo‘l beriladi. Sababi, “Paus”, “Aramine”, “MT-2010” rusumli avtoag-dargichlar tog‘ jinslarini ortgan holda yer qariidan sekinlik bilan tepaga chiqishi oson emas. Ularning har biri 15 tonnagacha tog‘ jinslarini yuqoriga olib chiqadi.

Biz o‘tirgan texnika haydovchisi orqaga harakatlanib, yo‘lining chap tomonidagi maxsus joyga kirib turdi va yo‘l berganimiz – yerosti transport vositasi o‘tib ketgach, yana yo‘limizda davom etdik.

Nihoyat, shaxta yo‘lini davom ettirish uchun maxsus perforator bilan yer ostidagi qattiq jismlarni burg‘ilayotgan va portlatish ishlariga tayyorgarlik ko‘rayotgan konchilar oldiga yetib keldik. Uchto‘rt kishi o‘z yumushi bilan band. Tosh-teshar texnikadan chiqayotgan shovqin o‘zi shundoq ham vahimali bo‘lgan shaxta siriligini yanada oshiradi.

Geologlar va marksheyderlar tomonidan aniqlangan ma’lumotlar asosida, vertikal hamda gorizontol holatlardagi lahimlarga o‘tiladi, – deydi ST-2G markali o‘ziyurar texnika operatori Sherali Sodiqov. – Har oltmish metr chuqurlikda shaxtaning bir-biriga parallel qavat(gorizont)lari joylashadi va dengiz sathidan balandlik metri bilan nomlanadi va o‘sha qavatda tegishli loyiha asosida qazish ishlari amalga oshiriladi. Agarda qirqimiga qaralsa, shaxta ko‘p qavatli mahobatli imoratga o‘xshaydi. Ish jarayoni uch smenada uzluksiz olib boriladi.

Ularning har bir harakatiga boqib, menda nega shaxtyorlar san’atkor, yo faylasuf emas, degan savol paydo bo‘ldi. Menimcha, ular g‘oyalar va so‘zlar orqali emas, qo‘lidagi “cho‘kich” va “erteshar” texnikasi vositasida fikrlaydi. Shuning uchun ularga ilhom faqat ishlayotganidagina keladi. Bu yerda biron-bir narsani bajarolmayman, deb ko‘ngilga keltirib bo‘lmaydi. Chunki, bu ikkilanish konchining kundalik ishini amalga oshirishini mushkul qilib qo‘yadi. Shuning uchun qoraqo‘tonlik shaxtyorlar hatto tunda ham to‘xtovsiz ishlashadi, 473 metr yer qariidagi har bir holatni tinmay kuzatadi, sinchiklab o‘rganadi. Har bir soat oltinga teng bu yerda. Shu sabab,

shaxtyorlik – shashti so‘nmaydiganlarning ishi.

– Nima deb o‘ylaysiz, maoshingiz qilayotgan ishingizga arziydimi?, – deb so‘rayman ust-boshi shalabbo bo‘lgan shaxtyordan.

– Albattal, – dedi Sherali Sodiqov. – Mashaqqatli mehnatimizga yarasha maoshlarimizni o‘z vaqtda olib kelyamiz. Ehtiyojimizdan kelib chiqib, moddiy yordam ham berib turishadi. Issiq ovqat bilan ta’minlashadi. Shaxtyorlik ortidan uy qurdim, to‘y qildim. Farzandlarimni uyli-joyli qildim.

Portlatish ishlari yakuniga yetgach, ma’danlar maxsus transport vositalari va yer osti vagonetkalarda yer ustiga olib chiqiladi.

Ayni paytda “Qoraqo‘ton” konida 400 nafardan ortiq ishchi-xizmatchi faoliyat olib bormoqda, – deydi kon bosh muhandisi. – Kon bitta qiya transport yo‘lagi va uchta gorizontol yer osti lahimi bilan ochilgan. Ular asosan shaxtani shamollatishga, tog‘ jinslarini yuqoriga – yer yuzasiga chiqarishga, ishchilarning shaxtaga tushib-chiqishi, asbob-uskunalar, materiallarni tashishga xizmat qiladi.

Tushunarli, lekin meni bir narsa qiziqirmoqda. Yuzlab metr yer ostida ishlayotgan konchilarni toza havo bilan ta’minlash lozim. Chunki yer qariiga qanchalik chuqur tushsangiz, havo shunchalik siyraklashib boraveradi.

Toza havo oqimi shaxtaga markaziy shamollatish tik kon lahimlari orqali yuboriladi va ishlatilgan havo shaxtaning oxirgi nuqtalaridan ko‘tarilgan tik kon lahimlari orqali yer yuziga chiqarib yuboriladi, – dedi hamsuhbatim. – Bilasizmi, har qanday shaxtada havo so‘rg‘ich va purkagichlar bo‘ladi. Shu jumladan bizda ham.

Konda 2025-yili 9 ming 100 metr kon lahimlari qazib o‘tilgan bo‘lsa, 2026-yil bu ishlarni 10 ming 800 metrga yetkazish maqsad qilingan. Yer osti kon lahimlarini qazib o‘tish ishlari oltin tarkibli ma’danni qazish ishlari bilan parallel ravishda olib borilmoqda. O‘tgan yili 250 ming tonna ma’dan qazib olingan bo‘lsa, joriy yilda “Qoraqo‘ton” bag‘ridan oltinli ma’danni qazish hajmini 300 ming tonnaga yetkazish rejalashtirilgan.

Yer qariiga va unda mehnat qilayotganlarning ish jarayoniga yaxshilab nazar solsang, ko‘p narsalarni chuqurroq anglaysan. Qorong‘ulikda singib ketgan mavhumlik yurakka vahima soladi. Aslida, qo‘rquv – insonga xos. U ehtiyotkor bo‘lishni o‘rgatadi va hayotni asraydi. Shaxtada ishonch va matonat doimo mukofotlanadi. Bugun “Qoraqo‘ton” ko-

ning 473 metrlik yer qariida 6 soatda 36 daqiqa tinim bilmasdan mehnat qilayotgan qahramonlar ishonch va matonat bilan mehnat qilmoqda.

– Taraqqiyot faqat ixtirolar orqaligina amalga oshadi. Buni yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar misolida ko‘rib turibmiz. Albatta, bu jarayondan biz ham chetda qolganimiz yo‘q, – dedi Alisher Normurodov. – Yaxshisi, faktlarga tayanaylik. 2016-yil konda 371 nafar ishchi-xizmatchi mehnat qilgan bo‘lsa, hozir 400 nafardan ziyod ishchi-xodimlar mehnat qilmoqda. O‘sha yili 170 ming tonna ma’dan qazib olingan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2025-yilga kelib 250 ming tonna yoki ma’dan qazib olish 2016 yilga nisbatan qariyb 180 foizga ko‘paydi. “Qoraqo‘ton” konida ma’dan qazib chiqarish hajmini oshirish maqsadida “Yangi dovon” konining

sharqiy qismi, “Toshkon” koniga tegishli ma’dan tanalarini mukammal, “Shimoliy Qoraqo‘ton” va “Shimoliy” uchastkalarining qator istiqbolli ma’dan manbalarini o‘zlashtirish ishlari nihoyasiga yetkazildi. Konimizda Shvetsiyaning “Epiroc”, Germaniyaning “Paus” hamda Fransiyaning “Aramine” kabi jahonga mashhur kompaniyalaridan keltirilgan eng zamonaviy texnika vositalari yordamida oltin tarkibli ma’dan qazib olinmoqda.

Konchilik va metallurgiya texnologiyasi asosan xorijda ishlab chiqariladi. Bugungi geosiyosiy vaziyat dunyo bo‘ylab uskuna va qismlar bilan ta’minlash logistikasida sezilarli qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Bu boradagi qiyinchiliklar kon ish faoliyatiga ta’sir qilmayaptimi?

Bu borada hukumatimiz va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati rahbariyati tomonidan maxsus dasturlar ishlab chiqilgan, – dedi A.Normurodov. – “Qizilqum” kon boshqarmasining kon texnologik uskunalarini ta’minlash sexida karyer va shaxta texnikasi uchun import o‘rnini bosuvchi bir necha turdagi ehtiyot qismlar ishlab chiqariladi. Korxonamizda energoresurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash hisobiga o‘tgan yilda 200 million so‘mlik iqtisodiy tejamkorlikka erishildi.

Navbatdagi portlatish jarayoni boshlanishiga sanoqli daqiqalar qolganligi sabab yer qariiga safarimiz ham poyoniga yetdi. Kon bosh muhandisi Alisher Normurodov kuzatuvda qiya transport yo‘lagining kirish qismi tomon bir maromda harakatimizni davom ettiryapmiz. Nihoyat ro‘paramizdan yorug‘lik ko‘rindi. Bu siz o‘ylayotgan chiroq emas,.. Va nihoyat yer yuziga chiqdik.

HALI BU YERLAR LOLAZOR BO‘LADI

Biz “Qoraqo‘ton” koniga borgan kunlarimiz halli qantar og‘magan bo‘lsada, Nayman cho‘qqida bahor nafasi ufura boshlagandi. Qatormoy tog‘ining oromini yerkovlar texnikalar, konchilarning shovqini buzadi. Bu yerlar qishda tund va sirillik yopinchiq‘ini egniga olsa, bahorda yam-yashil tusga kiradi.

Qatormoyda tabiat xarsanglardan “qo‘rg‘on” yasaydi va asrlar davomida shamol silab-siypab ularga jilo beradi. Ba’zi joylarda tepaliklar qo‘lma-qo‘l ushlashib turgandek tizilishib turishadi. Ha demay, bu yerda quyosh verga tik boqib, nurlarini qadaydi, jug‘ori tarafda kamalak yoyini yoyadi, keyin esa, ... Keyin esa, bu yerlar lolazorga aylanadi.

Mansur HUSANOV.



Dur – gavhar yog‘ayotir!

Ilg‘aganga samodan, dur-gavhar yog‘ayotir,
Bebaho ko‘p ilohiy, ziyo-nur yog‘ayotir.
Ne‘matlar yomg‘iridan, aqlimiz shoshayotir,
Oydan oydin yulduzlar, hang-u, mang qolayotir.

Inson qadri eng oliy, qadriyat bo‘layotir,
Elu xalq uchun yongan, kundan-kun oshayotir.
Har jabhada adolat, tantana qilayotir,
Jahon o‘rnak olarlik, buyuk ish bo‘layotir.

Qimirlagan qir oshib, jahonga chiqayotir,
Olma pish og‘zimga tush, deganlar uyg‘onyotir.
Xalqimiz bir bosh bo‘lib, yurt uchun yonayotir,
Ona yurt O‘zbekiston, yangidan qurilayotir.

Qurilish paytidagi, holat ham uchrayotir,
Ming yillarga tatirlik, burilish bo‘layotir.
Yorqin kelajak yaqin, nurlari ko‘rinayotir,
Huquqiy-demokratik, qurilish bo‘layotir.

Bosh me‘mor nazaridan, hech narsa qolmayotir,
Ummonning ortiga ham, ta’sirin o‘tkazayotir.
Buyuk ajdodlar qoni, qonida jo‘shayotir.
Sehrlil diyor shohi, mahliyo bo‘layotir.

Bunaqasi bo‘lmagan, mo‘jiza bo‘layotir!
Qor ham yonadi tezda, qalovin topayotir.
Har lahza Navoiyning, o‘rni bilinayotir.
Abdulhamid tashbehga, so‘z izlab topayotir.

Navro‘z muborak bo‘lsin!

Navro‘z kelsa olamga, atrof yana yasanar,
Ona O‘zbekistonni, jannatga qiyoslashar.

Saylgohlar bag‘ri ham, osmon bilan tutashar,
Har yondagi kuy yalla, kunni tunga ulashar.

Qir-adirga gilamlar, poyandozlar to‘shalar,
Tog‘da lola, qirlarda, qizg‘aldoqlar quvnashar.

Jajjigina uloqlar, qo‘zichoqlar quvlashar,
Suv bo‘yida majnuntol, anhor bilan sirlashar.

Otdan o‘zib qulunlar, har tomonga chopishar,
Bog‘lar bahoriy libos, harir ko‘ylak kiyishar.

Bulbullar chaqchaqlashib, kuy navolar chalishar,
Sokin tunda to‘lin oy, yulduzlar-la quvnashar.

Bulutlar ham quvlashib, ko‘kdan yomg‘ir sog‘ishar,
Har yonda yangilanish, bunyodkorlik yarashar.

Bahoriy sofiforlar, dillarni erkalashar,
Qozonlarda sumalak, halisalar qaynashar.

Bobolar-u, momolar, dil duolar qilishar,
Ona yurtga keng jahon, havas bilan qarashar!

Yaratgan nigohi bu, Nigoh muborak bo‘lsin!
Abdulhamid tabrigi, Navro‘z muborak bo‘lsin!

Har birlari bir malak!

Sumalak qo‘zg‘ayotgan,
Yurtimiz ayollari.
Elu yurtning ishqida,
Ularning xayollari.

Olam obod bo‘lsin der,
Dunyomiz tinch bo‘lsin der,
O‘g‘il, qiz kamolin der,
Sumalakchi ayollar.

Tillaridan tushmaydi,
Shirin so‘z va duolar.
Charchash nima bilmayin,
Sumalakchi ayollar.

Har birlari bir malak,
Ko‘kdan kelgan uch malak,
Har birida ming tilak,
Sumalakchi ayollar.

O‘yin, kulgu qilishib,
Barchasi chaqchaqlashib,
Dunyoga zeb berishib,
Sumalak qo‘zg‘ar ular.

Qozonlar qaynayapti,
Yomg‘irlar yog‘ayapti.
Demak ular tilagi,
Ijobat bo‘layapti!

Har biri bir farishta,
Yuzlardan oshib yursin!
Abdulhamid tilagi,
Dunyo turguncha tursin!

Abdulhamid QURBONOV,
“Zarmitan” koni yetakchi muhandisi.

■ Buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur tavalludining 690 yilligiga

Sohibqironni anglash — oʻzlikni anglash

“Siyosiy maydonga qadam qoʻyganida Amir Temur endigina 24 yoshga kirgandi. Mamlakat parokanda, mahalliy siyosiy kuchlar oʻrtasidagi oʻzaro qarama-qarshiliklar avj olgandi. Ustiga ustak, Chingizxon avlodlari Movarounnahrda tez-tez bosqin uyushtirib turardi. Taxminan bir asr davom etgan bu davrda Movarounnahrning istibdod alamini tortgan oddiy fuqarolaridan to yirik siyosiy arboblari-yu din peshvolarigacha juda ham ogʻir kun kechirdilar. Jamiyatga ozodlikka va taraqqiyotga boʻlgan intilishlarni oʻzida mujassam etgan xaloskor, dohiy zarur edi. Taqdir taqozosi bilan Amir Temur ana shunday xaloskor va yoʻlboshchi sifatida tarix sahnasida paydo boʻldi”.

Italiyaning Marko Polo instituti tomonidan nashr etiladigan “Marko Polo” jurnalining 2006-yil 2-sonida buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur haqida bosib chiqarilgan maxsus maqolada yuqoridagi satrlar darj etilgan.

Endi arab tarixchi-sayyohi Ibn Battutaning soʻzlariga quloq tutamiz. U XIV asrning birinchi choragida Movarounnahrda oʻtib ketayotib, koʻrganlarini shunday yozib qoldirgan: “uzoqdan koʻm-koʻk daraxtzorlar, shahar va binolar koʻringanda yaqinroq borilsa, vayronagarlik, xarobalik koʻzga tashlanadi, chunki hamma koʻchmanchilikka oʻtgan va hech kim yerlarni ishlamagan. Shaharlar mudofaa devorlarisiz xuddi patsiz qushday va shaharlarning oldingi shon-shuhrati suv, qumga singib ketganday yoʻq boʻlib qolgan edi”.

Yurtning bosqinchilar tomonidan vayron qilinishi, millatning istibdod asoratiga solinishi — Vatan ahli uchun eng katta fojeadir. Ruhiyati tushkun, tili, dini va qadriyatlari topalgan millat asta-sekin kelajakka boʻlgan umid-ishonchini ham boy beradi. Moʻgʻullar zabt etilgan hududlarda zulm va qon toʻkish borasida misli koʻrilmagan vahshiyliklarni sodir etishganki, hatto ular toʻgʻrisida, “oʻq oʻtmas, qilich chopmas, suvda choʻkmas, oʻtda yonmas” degan tasavvurlar paydo boʻlgan.

Ana shunday ogʻir sharoitda buyuk yoʻlboshchiga ehtiyoj har qachongidan kuchli boʻladi. Donishmand iborasi bilan aytganda, “Buyuk shaxslarni millat qaygʻusi, xalq dardi yaratadi”.

Sohibqiron Amir Temurday xaloskorning dunyoga kelishi zamon zarurati va talabiga aylandi, boshqacha aytganda, tarix va zamon oʻz qahramonini jahon maydoniga olib kirdi. Eng ogʻir tarixiy davrlarda davlat, millat va din oldida favqulodda xizmatlar koʻrsatgan, kelajak avlodlar uchun milliy taraqqiyot dasturini yaratib bergan buyuk yoʻlboshchilarni insonlar dohiy, deya ulugʻlaydilar. Ulugʻ Sohibqiron hayoti va faoliyati — millat qaygʻusi va xalq dardi bilan ya-shashning yaqqol namunasidir.

Sobiq shoʻro (SSSR) davrida “dohiy” soʻzi xoʻp meʼdamlizga tekkan edi. Yurtimizga umrida kelmagan, koʻrmagan, tilimiz va urf-odatlarimizga yetti yot begona, Turkistonni parchalab, unga balo-qazolari yoʻllagan tepakal va sariq soqqoli odamni bizga “dohiy” deya uqtirishardi. Easingni tanigandan boshlab soxta “dohiy”ning ismi xuddi azondek qulogʻingga quyilgani bilan, qalban tan olmasang

hammasi bekor ekan. Shuning uchunmi, bu soʻzning qadri ketib, eshitganda pinak buzmaydigan ahvolga kelgandik. Negaki, biz bir paytlar koʻklarga koʻtarib, muk tushib sigʻingan Lenin bobo, Stalin bobo va boshqa “bobo”larimiz haqiqatda hammasi qallob va jallod boʻlib chiqdi. Mana, sizga haqiqat.

Istiqol sharofati ila buyuk ajdodlar tarixini xolis oʻrgana boshladik. Oʻzbeklar tarix sahnasiga kecha yoki bugun chiqqan millat emasligi, bir asarda Sohibqiron bobomiz lafzidan aytilganidek, “Turkning bosh boʻgʻini” ekanligimizni angladik. Olamshumul allomalarimiz — millatimiz farzandlarining umuminsoniyat ilm-fani taraqqiyotiga qoʻshgan beqiyos hisssasi har qancha faxr va gʻururga loyiq ekanini his etdik.

Men Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanini 1988-yili uzoq Murmansk oʻlkasida harbiy xizmatni oʻtash chogʻida ilk bor mutolaa qildim. Ulugʻ adib oʻzining oʻlmas asarida Amir Temurni “dohiy” deb taʼriflagan. Oʻshanda bu soʻzni negadir eʼtiborimning bir chetidan “oʻtkazib” yuborganman. Balki bu ham soxta “dohiy”dan bezganimiz tufaylidir? Negaki, u paytda “butun dunyo proletariati”ning oʻsha xudobexabar “dohiy”si hali “amalda” edi.

Alixontoʻra Sogʻuniy “Turkiston qaygʻusi” asarida Sohibqiron Amir Temur haqida shunday yozadi: “...bu jahon qahramoni, islom olamining ulugʻ qoʻmondoni, butkul turk ulusining faxrlanarlik buyuk paitoni, Qurʼondagi “Allohga va uning saygʻambari Muhammadga va ham oʻzlariningdan boʻlgan podshohlarga itoat qilinglar”, degan Alloh hukmicha, Turkiston va boshqa boʻysungʻan mamlakatlarga haqiqiy shaʼriy va qonuniy podshoh ekanligi shak-shubhasizdir”.

Alloma Sogʻuniy, Sohibqironni “ulugʻ dohiy” deb taʼriflaydiki, bunda “dohiy” soʻzi oʻz asl oʻrinda, bu yuksak nomga munosib zotga nisbatan ishlatilganini qalban anglaymiz: “Oʻzining kimligini tanitib, uning kim ekanligini bildiruvchi turkiy tilida oʻzi yozgan “Temur tuzuklari” va boshqa qonunnoma asarlari esa bu qahramonning qandayin ulugʻ dohiy ekanligi uchun, eng kuchlik guvohlardir”.

Ushbu soʻzlarni oʻqigach, darhol “Oʻtkan kunlar”ni qaytadan varaqlab, Sohibqiron Amir Temur haqida aytilgan jumalani topdim: asarning “Qipchoqqa qirgʻin” nomli boʻlimida Yusufbek hoji, oʻgʻli Otabekka shunday deydi: “Temur Koʻragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fothilarning, Forobiylar, Ulugʻbek va Abu Ali ibn Sino kabi olimlarning oʻsib-ungan va nashʼu namo qilganlari bir oʻlkani halokat chuquriga qarab sudragʻuchi albatta tangrining qahrigʻa sazovordir, oʻgʻlim!”

Bu taʼriflarni oʻqib, nihoyatda gʻururlanib ketdim. Sohibqiron Amir Temur hazratlarini “ulugʻ dohiy” deb taʼriflanishi — baayni oʻrinli, degan xulosaga keldim. Shundaygina, ulugʻ bobomizga nisbatan aytilgan “dohiy” soʻzidan rozi boʻldim, koʻnglim toʻldi.

Bu xulosaga daʼfatan va yuqoridagi ulugʻvor taʼrifdan hayajonlanganim tufayli kelganim yoʻq. Avvalo, turli lugʻat va qomuslardan “dohiy” soʻzining mazmun-mohiyatini chuqur oʻrganishga harakat qildim. Masalan, 2006-yili chop

etilgan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “dohiy” — “favqulodda aql-zakovatga ega boʻlgan shaxs, oqil yoʻlboshchi”, deya taʼriflangan.

Ibn Battuta XIV asrning 1-choragida Movarounnahr shaharlari oʻrinda vayronalar koʻrgan boʻlsa, Kastiliyalik elchi Ryui Gonzales de Klavixo XV asrning boshida elchi sifatida kelib, bu yerda umuman boshqacha manzarani koʻrganini yozib qoldirgan. U mamlakatdagi obod hamda maʼmur shahar va qishloqlarni, Zarafshon daryosining qirgʻoqlarida, Samarqand shahrining mudofaa devorlari atrofidagi hashamatli binolarni, hunarmandchilik ustaxonalarini, savdo rastalarini, umuman bayramona manzaralarni tasvirlagan. “Butun shahar bogʻlar va uzumzorlar bilan oʻralgan, ular baʼzi joylarda bir yarim, baʼzi joylarda ikki chaqirim uzunlikda. Shahar esa ularning oʻrtasida joylashgan. Bogʻ va uzumzorlar shunchalik koʻpki, unga yaqinlasha borgan sari baland daraxtli butun bir oʻrmonga oʻxshaydi, uning oʻrtasida esa shahar joylashgan.

Shahar va bogʻlar oʻrtasida koʻplab sugʻorish kanallari qurilgan. Bu bogʻlarda koʻplab qonunlar va paxta yetishtiriladi. Bu yerning noni moʻl-koʻl boʻlganidek, vino va goʻshti ham, meva va parrandalari ham serob... Bu shahar shunchalik toʻkin-sochin va boyki, hayratlanasin kishi. Bu yerni boyligi faqat oziq-ovqat mahsulotlari bilan emas, balki ipak matolari bilan..., jun va shoyi astarlari bilan, uva-eliklari bilan, oltin va lazurit (koʻm-koʻk feruza tosh) ranglar bilan ham boydi”.

Bulardan tashqari u turli mamlakatlardan keltirilgan taniqli ustalar, dunyoning hamma davlatlaridan olib kelinayotgan mahsulotlar toʻgʻrisida xabar beradi.

Ispan elchisi zavq bilan tasvirlagan ozod va obod Vatanning barpo etilishi — buyuk davlat arbobi, Sohibqiron Amir Temur dahosi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Xorijiy muarrix Garold Lemb taʼkidlaganidek, “Amir Temur Samarqandni qaqragan tuproq, yarim vayrona shahardan “Sharqona Rim” degan taʼrifga munosib shaharga aylantirdi. Samarqand — Sohibqiron orzularining roʻyobi-ga aylandi”.

Amir Temur, elim deb, yurtim deb, uning shoni, shavkati, ozodligi deb, halovatsiz umr kechirdi. “Saltanat toʻnini kiygach, tinchlighu sogʻligim ketdi, oʻz toʻshagimda rohatda uxlash huzur-halovatidan voz kechdim...” deb yozgan edi bobokalon oʻz “Tuzuklar”ida. Ul zotning barcha yumushlari faqat Vatani va xalqi manfaatlariga qaratilgan edi.

Buyuk davlat arbobi, beqiyos sarkarda, buyuk yunyodkor sifatidagi mislsiz salohiyati, tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi, adolat timsoli boʻlgan bu mumtoz siymo nafaqat avlodlar, balki butun insoniyat uchun mangʻu ibrat namunasi boʻlib qolaveradi. Millatning ulugʻ va oqil farzandi, yoʻlboshchisida oʻsha millatga xos eng ulugʻvor fazilatlar aks etadi.

Abdulla Qodiriy va Alixontoʻra Sogʻuniy hazratlarining ulugʻ Sohibqironga bergan taʼriflari — favqulodda aql-zakovatga ega boʻlgan buyuk yoʻlboshchiga

berilgan eng xolis va adolatli taʼriflardir.

Butun bir millat oʻzligi — ulugʻ Sohibqiron Amir Temur siymosida mujassam! Xorijiy adiblar yozgan asarlar va tarixchi olimlarning tadqiqotlarida ham Sohibqiron Amir Temur hazratlarining dohiyligi haqida xolis eʼtiroflarni oʻqish mumkin.

Millatimiz tarixida jahonshumul ulugʻ siymolar juda koʻp, ammo hech bir zotga yuqoridagidek yuksak taʼrif berilmagan.

SOHIBQIRON FAQAT AMIR BOʻLGANMI?

Amir — Islom dini qabul qilinguniga qadar arablarda “amir” soʻzi qabila boshligʻi, harbiy boshliq degan maʼnolarni bildirgan. Arablar koʻp joylarni fath etib, islom dini yayilgach, Arab xalifaligiga qaram boʻlgan mamlakatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimni, qoʻshin qoʻmondoni va yirik lashkarbo-shilarni amir deb atashgan. Moʻgʻul istilosidan soʻng Oltin Oʻrdada, keyin Oʻrta Osiyo va Eronda moʻgʻul va turk qabilalari birlashmasi — ulus boshligʻining unvoni ham amir deb yuritilgan.

Sohibqiron Amir Temurning unvoni amir deb atalgan. Bu unvon temuriylardan keyingi sulolalar davrida ham saqlanib qoldi. Masalan, Qoʻqon xonligi hukmdorlaridan ayrimlari (masalan, amir Umarxon) shu unvon bilan davlatga rahbarlik qilishgan. Buxoro davlati esa rasman “amirlik” deb atalgan, oliy hukmdorlari amir rutbasiga ega edilar.

Hozirda amir unvoni arab podsholarining oʻgʻillariga beriladi (masalan Saudiya Arabistonida). Makkaga ziyorat uchun boruvchi katta guruh yoʻlboshchilari ham amir deb ataladi.

Temurshunos adib Hakim Sattoriy fikriga qoʻshilamiz, yaʼni, “Amir” soʻzi faqat bobokalonga nisbatan ishlatilganda ism sifatida bosh harf bilan yozish taomliga kirgan, boshqa hollarda esa harbiy unvoni bildiradi (xuddi “general” degandek) va kichik harf bilan yozish oʻrinli.

Amir Temur 1370-yili Balxda oʻtkazilgan qurultoyda Movarounnahrning mutlaq hukmdori etib saylansa ham, oʻzini podshoh yoki xon deb eʼlon qilmadi. Oʻsha paytdagi taomliga koʻra, davlatga Chingizxon asos solgan, shuning uchun faqat uning avlodidan boʻlganlarga xon deb atalishga loyiq koʻrildirdi. Amir Temur davlat boshiga kelgach, chingiziy Suyurgʻatmishxonni nomigagina xon qilib koʻtardi. Soxta obroʻga ehtiyoji boʻlmagan Sohibqiron “Movarounnahr amiri” degan unvon bilan yurtini boshqardi. Chunki u xon avlodidan emas, balki oʻddiy xalq ichidan chiqqan qahramon edi. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida shunday satrlar bor:

Sohibqiron shuhrati bilsang,
Nasabi haqida qar surishtirang,
Otdan otaga to Odam Ato,
Bori shohlik taxti uzra qoʻymish poy...

Yaʼni, Sohibqironning to Odam Ato-gacha borib ulanuvchi ota-bobolarining barisi shohlik taxtida oʻtirganlar, deydi. Bu maʼlumotni qanday tushunmoq kerak? Yoki, hazrat Sohibqironga xushomad qilish, ortiqcha ulugʻlash maqsadida yozilganmi, bu gaplar? Maʼlumki, ulugʻ Sohibqiron hayotlik chogʻida



haddan ortiq maqtoʻv va xushomadlarni xushlamagan.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, Sohibqironning yettinchi bobosi boʻlmish Qochuvli bahodir Chingizxonning uchinchi bobosi Qobulxon bilan egizak boʻlgan. Bularning otasi Tumanaxon esa Chingizxonga toʻrtinchi bobo, Amir Temurga esa sakkizinchi bobo edi.

Rashiddiddinning “Jome-at-tavotir” va Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”siga koʻra, Tumanaxon Chingizxonga toʻrtinchi, Amir Temurga toʻqqizinchi bobodir.

Har holda, koʻrinib turibdiki, Amir Temur Chingizxonning bevosita avlodlaridan boʻlmagan. Lekin Tumanaxon ularning har ikkisi uchun ham katta bobo edi. Aslida mana shu holatning oʻzi ham Amir Temurga Chingʻatoy taxti daʼvosini qilish imkonini berardi. Amir Temurning xon sifatida taxtga oʻtirmasligini, uning ulugʻ ajdodlar ahdi-ga boʻlgan hurmati bilan izohlash mumkin.

“Tuzuklar”da yozilishicha, Tumanaxon oʻgʻillari Qobulxon va Qochuvli bahodir oʻrtasida ahdnoma boʻlgan. “Tugʻluq Temurxon men bilan tuzgan ahdu qarorini buzib, ikkinchi bor Movarounnahr mamlakatiga qoʻshin tortib keldi va hukumatni mendan tortib olib, oʻgʻli Ilyosxoja-ga topshirdi. Meni esa unga bosh qoʻmondon (sipohsolar) va maslahatchi qilib tayinladi. Menga Qochuvli bahodir va Qobulxon tomonidan bitilgan ahdnomani koʻrsatdi. Men ulugʻ bobolarimizning soʻz va nomalarini qabul qilib, sipohsolorlik qilishga rozi boʻldim”.

1388-yilda, Sohibqiron davlatida nomigagina xon boʻlgan Suyurgʻatmish vafotidan keyin ham Amir Temur xonlik taxtiga oʻtirmadi. U taxtga yana chingiziy shahzodalardan biri, Suyurgʻatmishning oʻgʻli Sulton Mahmudxonni oʻtkazdi. Bu xon rasman butun Turkiston mamlakatining hukmdori sanalardi. Amalda esa Amir Temur qoʻshini safida sarkarda boʻlib, unga sadoqat bilan xizmat qildi. Chunonchi, 1402-yili Anqara yonidagi jangda Yildirim Boyazidni Sulton Mahmudxon asir olib, Sohibqiron huzuriga keltirgan edi.

Shu tariqa, oʻnlab shohlar oyogʻi os-

tida emaklab yurgan, qancha shahan-shoh va sultonlar uning etagini oʻpgan boʻlsa-da, Sohibqiron Amir Temur rasman xonlik taxtiga oʻtirmadi.

Ulugʻ shoirimiz Abdulla Oripov bir suhbatda shunday degan edilar: “Sohibqiron hazratlari qanchalik buyuk boʻlsa, shunchalik xokisor ham boʻlgan ekan. Oʻz lashkarlarining qozonidan taom yegan, odmi kiyingan. Yevropalik muarrix-elchi Klavixoning yozishicha, Chin Mochinu Xoʻjandning ipak liboslari turganida, Amir Temur hazratlari koʻpincha Shahrisabzning oddiy matosidan tikilgan (yaʼni olacha) kiyim, boshiga oddiy kalavash qoʻndirib yurgan. Yarim dunyo tasarrufida boʻlishiga qaramay, oyoqlari ona zamindan uzilmagan...”

Mana, “bir gʻisht olsa, oʻrniga oʻn gʻisht” qoʻygan buyuk bunyodkor, el-yurtning Otasi, ammo shon-shuhrat va yuksak martabayu-unvonlarga koʻngil bermagan zotning yaqqol qiyofasi!

“Eng haqqoniy tarixni yozdim” deb bayon etgan turkiyalik Mustafa Ali Sohibqiron Amir Temurni musulmon amirlari va sultonlari ichida eng kuchlisi, deya islom dunyosini siyosiy va diniy jihatdan birlashtirishdagi buyuk xizmatlarini taʼkidlaydi.

Mustafa Ali Amir Temurning haqiqiy musulmon boʻlgani, bir yoʻla “Sohibqiron” va “Sohibi zuhur” unvoniga ega ekanligini qayd etadi. Sultonlar ikki yoʻl bilan taxtga chiqadilar. Birinchisi — maʼlum hududni idora qilishni sulolasidan meros olgan sultonlar. Ikkinchisi — davlatni qoʻshin kuchi bilan egallab, oʻzlarining yutuqlari evaziga hukmdor boʻlganlar. Bunday sultonlar “Sohibi zuhur” deb ataladi.

Shuni ham aytish kerakki, Amir Temur 1391-yilda Toʻxtamishxon bilan jangga borayotib, Dashti Qipchoqda ulkan toshga xotira satrlarini oʻydirib yozdirganda, oʻzini “Turon sultoni” deb atagan.

Aslida, ulugʻ bobokalon bu kabi yuksak rutbalarga butkul loyiq zot edi.

Davomi kelgusi sonlarda.

Baxtiyor HAYDAROV,
Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi.

AMIR TEMUR FAOLIYATINI OʻRGANISH MEZONLARI

Yoshlarni tarbiyalash tizimida tarixiy shaxslarga murojaat qilish fuqarolik identifikatsiyasini, axloqiy yoʻnalishlarni hamda madaniy xotirani shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan XIV asrning buyuk davlat arbobi va sarkardasi boʻlgan Amir Temur shaxsi Markaziy Osiyo va jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida oʻrin egallaydi. Uning faoliyati nafaqat siyosiy jihatdan, balki mintaqaning madaniy va ilmiy taraqqiyotiga taʼsir koʻrsatgan omil sifatida ham baholanadi. Amir Temur obrazini tarixiy shaxs sifatida tahlil qilish va uning obyektiv tarixiylik tamoyillari asosida yoshlarni tarbiyalash tizimidagi salohiyatini taqqoslash muhim ahamiyatga ega.

Amir Temur faoliyati moʻgʻullardan keyingi davr siyosiy jihatdan parokandalashgan sharoitda kechgan. Chingiziyar davlati parchalanib ketganidan soʻng mintaqa begarorlik davrini boshdan kechirdi. Bu esa yangi markazlashgan hokimiyatning shakllanishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yuzaga keltirdi. Amir Temur mohirona boshqaruv, diplomatiya hamda maʼmuriy islohotlarga tayangan holda poytaxti Samarqand boʻlgan yirik davlatni barpo etdi. Tarixshunoslikda uning obrazi koʻp qirrali tarzda talqin qilinadi: bir tomondan — keng koʻlamli harbiy yurishlar olib borgan buyuk sarkarda va ozodlik

kurashchisi sifatida, ikkinchi tomondan esa — davlat islohotchisi hamda ilm-fan va madaniyat hokimysi sifatida namoyon boʻladi. Uning hukmronligi davri shaharsozlikning jadal rivojlanishi, hunarmandchilik va meʼmorchilik taraqqiyoti, shuningdek, ilm-fan ravnaq topgan davr sifatida tavsiflanadi.

Ilmiy nuqtai-nazardan Amir Temur faoliyatining muhim jihatlaridan biri uning davlat-maʼmuriy boshqaruv tizimi hisoblanadi. U boshqaruvning meʼyorlari va tamoyillarini oʻz ichiga olgan qoidalar majmuasini ishlab chiqqan boʻlib, u “Temur tuzuklari” nomi bilan mashhurdir. Maz-

kur manbada adolat, intizom, ijtimoiy iyerarxiya hamda hukmdorning jamiyat oldidagi masʼuliyati kabi gʻoyalari oʻz ifodasini topgan. Yoshlar tarbiyasi nuqtai-nazardan ushbu jihat quyidagi yoʻnalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

- 1). Liderlik sifatlarini shakllantirish — strategik fikrlash, maqsadga intiluvchanlik va qabul qilingan qarorlar uchun masʼuliyat;
- 2). Intizom va tashkilotchilik — ijtimoiy barqarorlikning muhim asosi sifatida;
- 3). Davlat tafakkurini rivojlantirish — qonun ustuvorligi va institutsional tartibning jamiyat hayotidagi rolini anglash.

Shuningdek, Amir Temur shaxsining tarbiyaviy salohiyatini belgilovchi muhim omillardan biri uning ilm-fan va madaniyat rivojiga qoʻshgan hissasidir. Samarqand turli hududlardan kelgan olimlar, ilohiyotshunoslar, meʼmorlar va hunarmandlar uchun yirik ilmiy-madaniy markazga aylangan. Aynan Temuriylar davrida madaniy yuksalishning paydevori qoʻyilib, bu jarayon keyinchalik uning avlodlari tomonidan davom ettirilgan. Xususan, buyuk astronom Mirzo Ulugʻbek ilm-fan rivojiga ulkan hissa qoʻshgan. Ilm-fan va taʼlimni qoʻllab-quvvatlash jamiyatning intellektual taraqqiyoti muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini namoyon etadi. Tarbiyaviy jarayonda esa bu jihat bilimga ustuvor ahamiyat berish, il-

miy izlanish va maʼrifatparvarlik gʻoyalari tarqib etishda muhim namunaviy omil boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Tarixiy nuqtai-nazardan shaxs obrazidan foydalanish koʻp qirrali tarixiy tahlil tamoyiliga asoslanishi lozim. Amir Temur faoliyatida ham bunyodkorlik, ham tarbiyaviy jihatlar mujassamdir. Harbiy yurishlar koʻpincha katta insoniy yoʻqotishlar bilan kechgan boʻlsa-da, ular ayrim tarixiy talqinlarda Vatan oldidagi jasorat sifatida bayon etiladi. Shu sababli bu masala taʼlim jarayonida obyektiv va muvozanatli yondashuv asosida yoritilishi zarur. Shu munosabat bilan, Amir Temur hamda uning avlodlari — oʻgʻillari, nabiralari va evaralarining tarbiyaviy salohiyati ularni ideal-lashtirishda emas, balki quyidagi muhim sifatlar-ni kompleks tarzda anglashda namoyon boʻladi: strategik tafakkurning ahamiyatini tushunish; shaxsiy masʼuliyatning rolini anglash; siyosiy qarorlarning tarixiy oqibatlarini idrok etish; tinchlik va insonparvarlik qadriyatlarini qadrlash.

Markaziy Osiyoning zamonaviy davlatlarida, jumladan Oʻzbekistonda Amir Temur obrazi davlatchilik va madaniy tiklanish timsoli sifatida talqin qilinadi. Biroq ilmiy yondashuv tarixiy fakt-ni uning milliy mafkuradagi talqinidan aniq farqlashni talab etadi. Yoshlar orasida tarixiy xotirani shakllantirish quyidagi ilmiy tamoyillarga asos-

lanishi lozim: manbashunoslik tanqidi; fanlarga tahlil; turli tarixiy nuqtai-nazarlarga hurmat; oʻtmishni mifologiyalashtirishga yoʻl qoʻymaslik.

Amir Temur tarixiy shaxsi murakkab va koʻp qirrali fenomen sifatida namoyon boʻladi. Uning faoliyati XIV–XV asrlarda Yevrosiyo hududining siyosiy hamda madaniy rivojiga sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Shu bilan birga, yoshlar tarbiyasi jarayonida Amir Temur obrazi strategik tafakkur, davlat oldidagi masʼuliyat hamda ilm-fan va maʼrifatni qoʻllab-quvvatlashga namuna sifatida qoʻllanilishi mumkin, biroq bu faqat ilmiy-obyektiv yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.

Shunday qilib, Amir Temur tarixiy shaxsini talqin etish yoshlar orasida analitik fikrlashni, fuqarolik yetukligini hamda oʻtmishni zamonaviylik kontekstida tarixiy jihatdan anglash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek, buyuk davlat arbobining davlat taraqqiyotiga qoʻshgan hissasini ijtimoiy-siyosiy hamda maʼnaviy-madaniy jihatlardan chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuxrat NOROV,
NDKTU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrası mudiri, tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

■ Huquqiy savodxonlik

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda advokatura instituti alohida ahamiyat kasb etadi. Advokatura – bu fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi mustaqil huquqiy institutdir. U jamiyatda qonun ustuvorligini taʼminlash, inson huquqlarini himoya qilish va odil sudlovni amalga oshirishda muhim oʻrin tutadi.

INSON HUQUQLARI HIMOYASINING ISHONCHLI KAFOLATI

Advokatura fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishi kerak. Har bir inson qonunlarni toʻliq bilmaslgi mumkin. Ayrim holatlarda esa shaxs oʻz huquqini mustaqil ravishda himoya qilish imkoniyatiga ega boʻlmaydi. Shunday vaziyatlarda advokat huquqiy maslahat beradi, zarur hujjatlarni tayyorlaydi va mijoz manfaatini sudda yoki boshqa organlarda himoya qiladi.

Advokatura odil sudlovni taʼminlashga xizmat qiladi. Sud jarayonida taraflar teng huquqli boʻlishi lozim. Agar bir taraf davlat organi yoki prokuratura boʻlsa, ikkinchi tarafni malakali advokat himoya qilishi adolat mezonini saqlashga yordam beradi. Bu esa sud qarorlarining qonuniy va asosli chiqishiga xizmat qiladi.

Jinoyat ishlarida advokat ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining huquqlari buzilmasligini taʼminlaydi. Advokat ishtirokisiz olib borilgan ayrim protsessu-

al harakatlar qonunga zid deb topilishi mumkin. Shu bois advokatning ishtirok etishi inson huquqlarini kafolatlaydi.

Advokatlar faqat sud jarayonida emas, balki fuqarolik, oilaviy, mehnat, mulkiy va tadbirkorlikka oid masalalarda ham huquqiy yordam koʻrsatadilar. Bu esa huquqiy madaniyatning yuksalishiga va nizolarning sudgacha hal etilishiga yordam beradi.

Advokaturaning yana bir muhim jihati — uning mustaqil faoliyat yuritishidir. Advokat oʻz vazifasini bajarishda faqat qonun talablariga tayanadi. Bu esa uning xolis va adolatli faoliyat yuritishiga imkon yaratadi. Advokatlar sud jarayonlarida ishtirok etib, dalillar va huquqiy asoslar orqali oʻz mijozlarining huquqlarini himoya qiladi. Shu tariqa advokatura sud adolatining toʻgʻri va xolis amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Demak, advokatning asosiy vazifasi — himoya va-killigini amalga oshirishdir.

Oʻzbekistonda advokatlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi asosiy organ — Oʻzbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hisoblanadi. U advokatlarning kasbiy huquqlari va manfaatlarini himoya qiladi, ularning malakasini oshirishga koʻmaklashadi.

Sud jarayonida advokat dalillar taqdim etadi, huquqiy asoslarni keltiradi,

himoya nutqi bilan ishtirok etadi va mijozining pozitsiyasini asoslab beradi. Shu tariqa advokat sudda tortishuv tamoyilini taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. Tortishuv tamoyili esa odil sudlovning asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, advokatura — inson huquq va erkinliklarining muhim kafolatidir. U sud-huquq tizimida adolat, tenglik va qonun ustuvorligini taʼminlashga xizmat qiladi. Advokatlar faoliyati jamiyatda huquqiy ong va madaniyatning yuksalishiga, fuqarolarning davlatga boʻlgan ishonchining mustahkamlanishiga zamin yaratadi. Shu bois advokatura institutini rivojlantirish va uning mustaqilligini taʼminlash huquqiy demokratik davlat barpo etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

B.XOLMURODOV,
Navoiy tumanlararo iqtisodiy sudi sudyasi.

■ Jinoyat va jazo

NAFS QURBONLARI

“Qizilqum” kon boshqarmasi “Pistali” koni Idoraviy harbiy-lashtirilgan qoʻriqlash otryadi xodimlari Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Navoiy kon-metallurgiya kombinati Ichki ishlar boʻlimi Tezkor qidiruv xizmati xodimlari bilan birgalikda tarkibida qimmatbaho metall boʻlgan maʼdanlarni noqonuniy tarzda qazib olish jinoyatlarining oldini olishga qaratilgan tezkor tadbir oʻtkazdilar. Fevral oyida oʻtkazilgan ana shunday tadbirda “Pistali” koni atrofida joylashgan “Oltin diyor” kar- yeridan taxminan 6-7 kilometr masofada boʻlgan, “Qizilcha” mahalla fuqarolar yigʻini hududidagi togʻ tizmalarida qoʻbola usulda qazilgan shaxtalar atrofi koʻzdan kechirildi. Ana shu jarayonda Nurota tumani “Qizilcha” mahallasida istiqomat qiluvchi fuqaro N.F va tumanning “Navroʻz” mahallasida yashovchi N.O.lar qingʻir ishga qoʻl urganliklari aniqlandi. Jumladan, mazkur fuqarolar oldindan oʻzaro til birliktirib, noqonuniy daromad orttirish maqsadida tarkibida qimmatbaho metall boʻlishi mumkin boʻlgan 114 kilogramm maʼdanli toshlarni hech qanday ruxsatnomasiz qazib olib, oʻzlari bilan olib kelgan oq rangli polietilen qoplariga solib, olib ketmoqchi boʻlganlarida, maʼdanli tosh va qumlar xolislar ishtirokida daliliy ashyo sifatida rasmiylashtirib olindi. Bu fuqarolar davlat mulki hisoblangan oltin tarkibli maʼdanlarni ruxsatnomasiz qazib olib, moʻmay daromad orttirishni maqsad qilishgan. Ularning bunday gʻarazli niyatlariga chek qoʻyildi. Hozirgi kunda fuqarolar N.F va N.O.larga nisbatan Nurota tumani IIB tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 196² – moddasi 2-qismi “b” bandi bilan jinoyat ishi qoʻzgʻatilib, tergov harakatlari olib



Surat sunʼiy intellekt yordamida tayyorlandi.

borilmoqda. Xalqimiz “Nafsga ergashgan koʻngil, hech qachon orom topmas” degan naqlni shunday kimsalarga nisbatan aytgan boʻlsa ajabmas.

Umidjon XAZRATOV,
Navoiy viloyati IIB NKMK IIB TQX tezkor vakili, kapitan.

QONUN HIMOYACHISINING QONUNSIZ ISHI



Surat sunʼiy intellekt yordamida tayyorlandi.

Ichki ishlar xodimlari jamiyatda turli xil qonunbuzilish holatlari, jinoyatchilikning oldini olishga safarbar etilganlar. Ularning aksariyati zimmalarida shunday yuksak masʼuliyat borligidan faxrlanishadi va oʻz vazifalarini sharaf

bilan bajaradilar. Guruch kurmaksiz boʻlmaganidek, ichki ishlar xodimlari orasida ham, garchand baʼzan boʻlsa-da, qonunni buzadiganlar uchrab turishi juda afsuslanarli holdir. Navoiy viloyati IIB JXX JTSB saf boʻlinmasi patrul-post

xizmati batalyoni 1-otryad boʻlinma komandiri Sh.K. (familyasi va ismi oʻzgartirilgan) ichki ishlar xodimi shaʼniga dogʻ tushirgan kimsalar toifasidan boʻlib chiqdi.

Undan yuksak maʼnaviy-axloqiy fazilatlar egasi boʻlishi, xizmat burchini vijdonan bajarishiga nisbatan fuqarolarda shubha uygʻotuvchi va ichki ishlar organlari obroʻsiga putur yetkazuvchi har qanday xatti-harakatlardan tiyilishi, huquqiy normalar asosida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashish talab qilingani holda shaxsiy boylik orttirishni rejalashtirib, qonunga xilof ravishda qimor va tavakkalchilikka asoslangan oʻyinlarni tashkil etgan. U jinoyi maqsadiga erishish uchun tanishi B.B.ga tegishli uyni vaqtincha foydalanishga olib, oʻziga oldindan tanish boʻlgan A.A. va D.P.ni qimor oʻynashga jalb etib, jinoyatga qoʻl urdi. Hech bir jinoyat jazosiz qolmaydi. B.K.ga sud tomonidan 2 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Otabek ABDIYEV,
Navoiy ixtisoslashtirilgan prokuraturasi tergovchisi, 1-darajali yurist.

■ Yangi tarjimalar

YARATGAN HAQ

– E, haqiqat yoʻq ekan-da, qayerga qarama nohaqlik,-deb bot-bot nolir edi bir qariya. Kunlarning birida shu soʻzlarni aytgan zahoti roʻparasida Yaratganning elchisi - farishta paydo boʻldi.

– Sen Yaratgandan uning ishlariga tushunmasligingni, nega baʼzi kishilar gʻam chekishi-yu, baʼzi birlar tashvish neligin bilmasligi sirini tushunib yetishni istashingni soʻragan eding – a?! Yur men bilan, – deya, farishta qariyani qishloqdan uzoqqa olib chiqib ketdi.

Bu yerdan bir yoʻl oʻtar edi, yoʻlning yonginasidagi buloqdan ziloldek suv sizib chiqar, irmoqcha hosil qilib, sokin oqib turar edi. Xuddi ana shu yerda bir katta daraxt qad rostlab turar, unda ichiga odam sigʻadigan kovak ham bor edi.

– Ogʻayni, sen shu kovak ichida indamay oʻtir va men kelmagunimcha atrofdagi voqealarni kuzat. Bu yerdan koʻplab kishilar oʻtadi, baʼzi birlar dam olish uchun birrovga toʻxtab oʻtadi. Qara, oʻzingni shu yerdaligingni hech kimga bildirib qoʻyma.

Shu gaplarni aytdi-yu, farishta qanday paydo boʻlgan boʻlsa, shunday gʻoyib boʻlib qoldi.

Qariya daraxtning kovagiga kirib, yaxshilab joylashib oldi, u yerdan atrofini yaqqol koʻrsa boʻlar ekan. Shu payt uzoqdan kelayotgan, tashqli koʻrinishidan, bashang kiyinishidan badavlatligi bilinib turgan bir yoʻlovchi koʻrindi. U shu yerda toʻxtadi. Gilamcha toʻshab, ustiga joylashib oʻtirib olishi uning dam olish uchun toʻxtaganini anglatar edi. Shoshilmasdan oldiga dasturxon yozib, choy ichib, yogʻli goʻshtlarni tanovul qila turib, hamyonini chiqardi. Hamyon oltin tangalarga liq toʻla edi. U hayotidan mamnun holatda zavqlanib, pullarini takror va takror sanab koʻrdi. Sogʻ dasturxonini yigʻishtira boshladi, gilamini ham yigʻib boʻldi-da, yoʻlgʻa otlandi, hamyonini tushib qolganini ham sezmay, yoʻlini davom ettirdi.

Kovakda oʻtirgan qariya yon-atrofga qarab turib, yupungina

MOʻYQALAM

Bir zamonlar dunyoda boʻyoqchi yigit yashagan ekan. U har kuni kech kirganda ufq qizarib, tez oqar daryo ortiga quyoshning botishini kuzatishni juda ham yoqtirar edi. Boʻyoqchi moʻyqalam sohibiga aylanishni, kun kelganda goʻzal va rang-barang olamni oppoq qogʻozda aks ettirishni orzu qilard, doimo rasm chizishni mashq qilard edi. Tez orada taqqir uni siyladi: u bir emas, balki bir qator mamlakatlarda taniqli rassomga aylandi. Shu darajaga yetdiki, chizgan rasmlarining kundan-kun narxлари oshib, hatto suratlari kim oshdi savdolariga qoʻyiladigan boʻldi.

Kunlarning birida yosh rassom husni-malohatda tengsiz qizni uchratib qoldi. Goʻzalning kulib turgan nigohi va anordek qip-qizil yonoqlari moʻyqalam sohibini oʻziga maftun qildi. Bu chiroyni qogʻozda muhr lashni oʻziga niyat qilib, qizga iltimos bilan murojaat qildi. Qiz ham, u oʻylagandek, nozlanmasdan, suratini chizishiga rozi boʻldi. Moʻyqalam sohibi ilhom bilan, zavqlanib, bor mahoratini ishga solib hurliqoning tasvirini tuval (rasm chizish uchun ishlatiladigan mato)ga tushira boshladi. Qizning surati beqiyos darajada gavdalandi, xuddi qizning siymosi toshoyنادa koʻringandek boʻldi. Rassom oʻz ishidan juda mamnun edi. Qiz esa suratga boqib, samimiyat bilan dedi:

– Ha, moʻyqalam gap yoʻq! Rosa muvaffaqiyatli chiqibdi!

Qizning soddaligi ustaning xandon otib kulishiga sabab boʻldi:

– Moʻyqalamning nima daxli bor?! Bu hammasi mening isteʼdodim-ku! Men qop-qora koʻmir yordamida ham quyosh nurining barcha darajalarini chizib beraman senga, oq qogʻozga qop-qora tunni



ham oq boʻyoqlarda tasvirini chizaman...

Shunda qiz sira andisha qilmay, tabassum ila javob berdi:

– Men ham, siz ham Yaratganning qoʻlida bir moʻyqalam, deb oʻylagan edim, Parvardigor siz chizgan suratlar orqali oʻzi yaratgan dunyoning qoʻzalligini bizga yorqin namoyon qiladi, deya fikrlabman-a.

Rassomning yuziga husn berib turgan tabassum yonib turgan sham kabi oʻchdi, qoshlari chimirildi va gʻazablangan yigit dona-dona qilib, baland ohangda dedi:

– Yoʻq, sen adashyapsan, meni eshit-yapsanmi?! Men chizdim bu suratni, oʻz qoʻllarim bilan. Yaratuvchisi menman! Meni “kimdingdir qoʻlidagi moʻyqalam” deb oʻylashning oʻzi katta xato, bilingmi!

Rassom toza tuvalni maxsus moslama - molbertga oʻrnatdi, rang boʻyoqlarini qoʻshdi.Oʻz qoʻllariga ishongan holda rasmni dadil chiza boshladi. Bir soat vaqt

oʻtgach oʻzini dunyodagi “eng baxtsiz inson” deb hisobladi, sababi: koʻz oʻngida uquvsiz chizilgan rasm namoyon boʻlgan edi. Necha bor qogʻoz va boʻyoqlarni almashitmasin, naqadar ranglarni tanlamasin, uygʻunlashtirmasin, barisi befoйда edi. Moʻyqalamlarni sindirar, dodlar, yigʻlar edi u, xuddi yosh boladek. Goʻyoki hech qachon qoʻlidan rasm chizish kelmagandek, mohir usta boʻlmagandek chizgan rasmlari hech oʻxshamas edi.

Qachonlardir dunyodagi mamlakatlarning birida gʻaribona kulbada taniqli rassom yashar edi. Har kech oʻtirib olib, botayotgan quyoshni kuzatishni yaxshi koʻrar, uzoqda koʻringan qizargan ufqqa qarab, doimo bir jumlaini takrorlashdan charchamas edi: “Biz Yaratganning qoʻlida moʻyqalamdan boshqa hech narsa emasmiz! Biz Yaratganning qoʻlida moʻyqalamdan boshqa hech narsa emasmiz!”

SHART

Kunlarning birida bir yosh ayol ruhoniyning oldiga kirib keldi, salom-alikdan soʻng, asta soʻz boshladi:

– Siz ikki yil avval meni erim bilan nikohlab qoʻygan edingiz, esingizdami? Endi esa bizni ajratib qoʻyishingizni iltimos qilaman. Men bu odam bilan birga yashashni istamayman.

–Qizim, ajrashish fikriga kelishingga nima sabab boʻlyapti?, – deb soʻradi ruhoni.

Ayol tushuntira boshladi:

– Bilasizmi, hammaning erlari uylariga oʻz vaqtida qaytadi, mening turmush oʻrtogʻim esa doim ishdan kech keladi. Shu sabab uyimizda har kuni janjal boʻladi, charchab ketdim.

Ruhoni y hayron boʻlib soʻradi:

– Sabab faqat shumi?

– Ha. Ana shu sababli ham bu odam bilan yashashni istamayman,bu sabab boʻlmaydimi?

– Mayli, shuni istar ekansan, sizlarni ajrataman, – dedi ruhoni, – ammo bitta shartim bor: uyingga borasan, menga shaxsan oʻzing bir dona katta va mazali non yopib kelasan. Non yopish uchun uyingda bor mahsulotlardan hech narsa ishlatma; tuzni ham, suvni ham, unni ham, xamirturushni ham qoʻshnilaringdan soʻrab ol. Va nima uchun mahsulotlarni ulardan olayotganingni yotigʻi bilan tushuntirib ber.

Ayol uyiga qaytib, darhol ishga kirishdi.

Avvalo yon qoʻshnisi Mariyaning oldiga bordi:

– Ey, Mariya, bir kosa suv berib tursang.

– Sizlarda suv tugab qoldimi? Hovlingizda quduq bor emasmi?

– Suv bor, lekin men ruhoniyyga borib, erimdan shikoyat qilib,

kiyingan, yelkasiga yoʻlxalta ilib olgan kishi kelayotganini koʻrib qoldi.Yoʻlovchi mayssa ustiga belbogʻini yozib, sekingina uning ustiga oʻtirdi. Yoʻlxaltasidan nonni va suvni oldi, nonni yeb, ustidan suv ichar ekan, mayssa ustidagi hamyonga koʻzi tushdi. Hamyonni olib, xursandligidan qayoqqa yoʻl olgani ham esidan chiqib, shodon yugurib ketdi.

Qariya esa hali ham kovakda pisib oʻtirar, atrofini kuzatar edi. Qarasa: juldur kiyimda, gʻaribona koʻrinishdagi bir yoʻlovchi kelyapti. Bu bechora buloq suviga peshonasini ham yuvib ulgur madi ham-ki, oʻsha boy odam yugurib kelib, gʻazab olovida yongan holda, undan hamyonini talab qila boshladi va uni ayovsiz mushtlab, doʻpposlay ketdi. Bechora yiqilganda qirralli toshga boshi bilan urildi va jon taslim qildi. Boy joni uzilgan bechorani titkilab koʻrdi, hamyonini topolmagach, atrofga alanglagancha, qochib ketdi. Bu holatga guvoh boʻlgan qariya yigʻlab yubordi.

Shu on yana oʻsha farishta paydo boʻldi:

–Xoʻsh, nimalarni koʻrding?

– Faqat va faqat nohaqlikni. Bilasanmi, jazosini topmagan gunohkorni koʻrish juda azobli, qarab turolmaysan kishi, chidab boʻlmaydi!

– Endi, meni tingla, qariya, – dedi farishta. – Hamyonni topib olgan kishi qachonlardir boyning yaqin doʻsti edi, ana shu boy juda ayyor, qizgʻanchiq, maraz, muttaham edi-ki, aldov yoʻli bilan doʻstini xonavayron qilib, uning mulkiga ega chiqqan edi. Ana u- doʻpposlanib, oʻldirilgan bechora esa , bir paytlar oʻz akasining mol-mulkini oʻgʻirlab, oʻz jigarini davlat uchun oʻldirgan kimsa. Kunlarning birida qilmishiga pushaymon boʻlib, bor-yoʻgʻini hammaga tarqatib, shu dunyoda gunohlari yuvilishi uchun oʻziga azobli oʻlim tilagan edi. Mana, koʻrib turibsan, Yaratgan uning istagi ijobatini berdi, – dedi farishta.

– Tangri haq, – xitob qildi, bu gaplarni eshitgan qariya – Tangri haq.

KONCHILAR HAYOTI

MUASSIS:
“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta roʻyxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV



Tahririyat manzili:
210100.
Navoiy shahri, Navoiy koʻchasi, 27-uy,
“NKMK” AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamgʻarmasi” DM boʻlinmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati boʻyicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spittamen koʻchasi, 270-uy.

Navbatchi: **Azamat ZARIPOV**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qogʻoz bichimi A2. 11200 nusxada chop etildi. Buyurtma № 111. 2026-yil 19-mart 17:00 da chop etishga topshirildi.